



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

TA'LIM JARAYONIDA O'QUV RESURSLARINI TANLASHDA
KOMPETENTLIK YONDASHUVINI TADBIQ ETISH

Turdiyev Alisher Sobirovich

Osiya xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida o'quv resurslarini tanlashda kompetentlik yondashuvini qo'llash masalalari yoritilgan. Ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalash zarurati asoslanib, o'quv resurslarining kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kompetentlik yondashuvini amaliyotga tatbiq etishning samarali tashkiliy mexanizmi sifatida pedagogik ta'lim klasteri modelining roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik yondashuvi, o'quv resurslari, kompetensiya, pedagogik ta'lim klasteri, ta'lim sifati, ta'lim samaradorligi, kasbiy kompetensiya, ta'lim resurslarini tanlash, integratsiyalashgan ta'lim, innovatsion pedagogik yondashuvlar

ПРИМЕНЕНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА ПРИ ВЫБОРЕ
УЧЕБНЫХ РЕСУРСОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Турдиев Алишер Собирович

Магистр Международного университета Азии

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы применения компетентностного подхода при отборе учебных ресурсов в образовательном процессе. Обоснована необходимость представления результатов обучения через компетенции и раскрыта роль учебных ресурсов в формировании профессиональных, социальных и личностных компетенций обучающихся. Также показано значение модели педагогического образовательного кластера как эффективного организационного механизма внедрения компетентностного подхода.

Ключевые слова: компетентностный подход, учебные ресурсы, компетенции, педагогический образовательный кластер, качество образования

APPLYING A COMPETENCY-BASED APPROACH IN SELECTING
EDUCATIONAL RESOURCES IN THE LEARNING PROCESS

Turdiyev Alisher Sobirovich

Master's student at Asia International University





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Annotation. *The article examines the application of the competency-based approach in selecting learning resources within the educational process. The necessity of expressing learning outcomes through competencies is justified, and the role of learning resources in developing learners' professional, social, and personal competencies is analyzed. In addition, the pedagogical education cluster model is highlighted as an effective organizational mechanism for implementing the competency-based approach.*

Keywords: *competency-based approach, learning resources, competencies, pedagogical education cluster, quality of education*

Bugungi zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga sifat jihatidan yangi talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarga tayyor bilimlarni yetkazishdan iborat bo'lmay, balki ularni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda mustaqil faoliyat yurita oladigan, muammolarni samarali hal etishga qodir shaxs sifatida shakllantirishga qaratilmoqda. Mazkur holat ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalashga asoslangan kompetentlik yondashuvining ta'lim tizimida yetakchi metodologik tamoyil sifatida qaror topishiga sabab bo'lmoqda.

O'quv resurslari ta'lim mazmunining asosiy tashuvchisi bo'lib, ular orqali nafaqat bilimlar uzatiladi, balki ta'lim oluvchilarda amaliy ko'nikmalar, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda ijtimoiy-kasbiy moslashuv kompetensiyalari shakllantiriladi. Shu bois o'quv resurslarining kompetensiyaviy yo'naltirilganligi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. [1]

Ammo, ta'lim amaliyotida o'quv resurslarini tanlash jarayoni ko'pincha an'anaviy yondashuv asosida, ya'ni faqat mavzuning nazariy mazmunini yoritish darajasi yoki axborot hajmi bilan cheklanib qolmoqda. Natijada o'quv resurslarining ta'lim oluvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmayapti. Ayniqsa, resurslarning amaliy yo'naltirilganligi, fanlararo integratsiyasi, interaktiv va muammoli vaziyatlarga asoslanganligi masalalari ko'plab hollarda e'tibordan chetda qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida o'quv resurslarini tanlashda kompetentlik yondashuvini tizimli va maqsadli ravishda tadbqiq etish zarurati dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur muammo o'quv resurslarini tanlashning aniq mezonlarini ishlab chiqish, ularning kompetensiyalarni shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish mexanizmlarini asoslashni taqozo etadi.

Mazkur jarayonda o'quv resurslarini samarali tanlash va ulardan foydalanish yakka ta'lim muassasasi doirasida emas, balki turli ta'lim subyektlari, fanlar, texnologiyalar va inson resurslarining o'zaro integratsiyasi asosida amalga oshirilishi zarur. Aynan shu ehtiyoj ta'lim tizimida kompetentlik yondashuvini amaliyotga joriy etishning tashkiliy va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

metodik mexanizmlarini izlashga undaydi hamda pedagogik ta'lim klasteri modelining dolzarbligini belgilab beradi. [2]

Pedagogik ta'lim klasteri muayyan hudud doirasida raqobatbardosh, zamonaviy kasbiy va fuqarolik kompetensiyalariga ega pedagog kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan, o'zaro uzviy bog'langan va teng huquqli subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlovchi integrativ mexanizm sifatida talqin etiladi. Mazkur mexanizm fanlar, ta'lim texnologiyalari hamda inson resurslari integratsiyasini kuchaytirish orqali ta'lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning uyg'unlashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy va tarmoq manbalariga tayangan holda qayd etish mumkinki, "klaster" tushunchasi (inglizcha cluster — to'plam, guruh, jamlanma, konsentratsiya) dastlab axborot texnologiyalari sohasida shakllangan bo'lib, muayyan umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil elementlarning birlashuvi va o'zaro hamkorligini ifodalaydi. Ta'lim tizimi kontekstida ushbu atama ta'lim subyektlarining resurslar, tajriba va salohiyatni birlashtirish asosidagi strategik hamkorligini anglatadi. [3]

Pedagogik ta'lim klasterining asosiy maqsadi — uning ishtirokchilarining ta'limiy, ilmiy va innovatsion salohiyatini integratsiyalash orqali nafaqat yuqori darajadagi kasbiy va fuqarolik kompetensiyalariga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, balki zamonaviy ta'lim sharoitida innovatsiyalarni qabul qila oladigan, yangi ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish qobiliyatiga ega raqobatbardosh pedagog kadrlarni shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik ta'lim klasteri masalasi rossiyalik olimlar tomonidan turli ilmiy yo'nalishlar doirasida keng miqyosda o'rganilgan. Jumladan, kasbiy ta'limda klaster yondashuvi G.V. Muxametzyanov, E.A. Korchagin, N.B. Pugachyova, A.V. Leontyev tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi B.S. Gershunskiy, G.V. Muxametzyanova, A.M. Novikov tadqiqotlarida asoslab berilgan bo'lib, oliy ta'lim tizimining mintaqaviy rivojlanish masalalari A.G. Abrosimov, N. Vasilchenko, V.S. Ivanov, V.P. Kovalevskiy, I. Mayburova, L. Milyaeva, A. Rikun, S. Smirnov asarlarida o'z aksini topgan. [4]

Mazkur ilmiy izlanishlar "ta'lim klasteri" tushunchasining nazariy asoslari yetarlicha mukammal ishlab chiqilganidan dalolat beradi. Ushbu yondashuvlar o'zbek olimlarining qarashlari bilan uyg'unlashib, ta'lim tizimining integrativ rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xususan, O.E. Gavrilova ta'lim klasterini korxonalar tarmog'i bilan sheriklik munosabatlariga asoslangan holda birlashgan kasbiy ta'lim muassasalarining integratsiyalashgan birlashmasi sifatida ta'riflaydi. Boshqa manbalarda esa ta'lim klasteri fan, texnologiya va biznes o'rtasidagi innovatsion zanjir doirasida gorizontaal aloqalarga asoslangan o'zaro ta'lim va o'zaro o'rganish tizimi sifatida talqin etiladi. Ayrim tadqiqotlarda esa u maktabdan ishlab chiqarishgacha bo'lgan uzluksiz ta'limni ta'minlovchi kompleks tizim sifatida izohlanadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, Amerika, Yevropa va Afrika mamlakatlarida "maktab klasteri" tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yevropa ta'lim tizimida maktab klasteri ma'muriy va ta'limiy tengsizlikni bartaraf etish maqsadida geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan maktablarning birlashuvi sifatida qaraladi. V. Chikoko klasterlarni hududiy yaqinlik asosida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan maktablar guruhi sifatida tavsiflaydi, T. Tekaligne esa ularni ma'muriy va ta'limiy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun tashkil etilgan maktablar birlashmasi deb hisoblaydi. [5]

Maktab klasterlari rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirishning xalqaro standartiga aylangan bo'lib, ular o'qitish va o'rganish jarayonida resurslardan birgalikda foydalanish, tajriba almashish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Klaster markazi sifatida faoliyat yurituvchi tayanch maktab muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi, oliy ta'lim muassasalari esa ilmiy-metodik ko'mak manbai sifatida ishtirok etadi. Natijada ma'muriy va ta'limiy jarayonlarni tashkil etish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Shu bilan birga, turli mintaqalarda ta'lim klasterlarining tuzilmasi va faoliyat mexanizmlari farqlansa-da, ularni joriy etishdan ko'zlangan umumiy maqsad — ta'lim tizimining barcha bosqichlari o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlash hamda mavjud moddiy, axborot va pedagogik resurslardan oqilona foydalanishdan iborat. [6]

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonida kompetentlik yondashuvini samarali joriy etish bevosita o'quv resurslarini tanlash, tizimlashtirish va ulardan foydalanish mexanizmlarining takomillashuvi bilan uzviy bog'liqdir. O'quv resurslari ta'lim mazmunining oddiy axborot tashuvchisi sifatida emas, balki ta'lim oluvchilarda kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik vosita sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, o'quv resurslarini kompetensiyaga yo'naltirilgan holda tanlash jarayoni alohida ta'lim muassasasi doirasida emas, balki fanlararo, institutlararo va amaliy hamkorlikka asoslangan integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik ta'lim klasteri modeli kompetentlik yondashuvini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning samarali tashkiliy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Klaster doirasida o'quv, pedagogik va axborot resurslarining birlashtirilishi ularni maqsadli, oqilona va tizimli tanlash imkonini yaratadi. [7]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki ta'lim jarayonida o'quv resurslarini tanlashda kompetentlik yondashuvining joriy etilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik ta'lim klasterlari esa ta'lim tizimining





barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim innovatsion model sifatida e'tirof etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xutorskoy A.V. Kompetensiyaviy yondashuv: Ta'lim mazmuni va metodlari. – Moskva, 2002.
2. Lebedev O.E. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. – Moskva, 2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni – “2022–2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish milliy dasturi to'g'risida”.
4. Dilfuza Melievna Makhmudova. Information and communication technologies for developin gcreative competence in the process of open teaching physics and maths. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation / Vol.24, Issue 09, 2020 ISSN: 1475-7192. (Scopus).
5. UNESCO (2015). “Education for All 2000–2015: Achievements and Challenges”.
6. OECD (2018). “The Future of Education and Skills – 2030 Framework”.
7. Mahsusa pedagogika asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2021.

